



AVESTODA TA'LIM TARBIYA HAQIDAGI FIKRLAR VA ULARNING BUGUNGI KUN UCHUN AHAMIYATI

Valiyeva Sevinch Alisher qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti, Tarix fakulteti, Milliy g'oya va huquq ta'limi yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya *Ushbu maqolada, "Avesto" jahon madaniyatining qadimgi noyob yodgorligi zardushtlik e'tiqodiga amal qiluvchilarning muqaddas kitobi ekanligi va uning tarkibi, hamda ma'naviyat va ma'rifat masalalari va ularning binning bugungi kun uchun ahamiyati haqida yoritib berilgan*

Kalit so'zlar: *"Avesto" asari, tarix, manba, yozma manbalar, davrlashtirish, pedagogika tarixi*

O'rta Osiyoning qadimgi tarixini o'rganishda "Avesto" ning o'rni beqiyosdir. Unda diniy e'tiqod va xalqlarning o'zaro aloqalari bilan bir qatorda ularning hayoti, turmushi, urf-odatlari, marosimlari aks ettirilgan. Shuningdek bu buyuk asarda tarix, falsafa, dinshunosli, manbashunoslik, geografiya, etnografiya va umuman, ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalariga oid eng qadimgi ma'lumotlar to'plangan. "Avesto" da bayon etilgan asosiy g'oyalar, diniy e'tiqodning ilk sodda bilimlari Zardusht nomi bilan bog'langan. Olimlar zardushtiylik dini ta'limotini quyidagi uchta tarixiy qism (davr) ga bo'lib o'rganadilar, birinchisi, eng qadimiy qismi miloddan avvalgi uch ming yillikda vujudga kelgan ilohlarga aytilgan madhu sanolar-yashtlardir; ularda qabilaurug'chilik tuzumidagi e'tiqodlar, ko'p xudolik tasavvurlari tasvirlangan; ikkinchisi, gatlardebat alagan qismidir.

Bunda Axuramazda nomli xudo haqida fikrlar yozilgan; uchinchisi, qadimiy ko'pxudolik va keyingi yakkaxudolik g'oyalari orasidagi kurash sharoitlarida eramizdan oldingi V asrda har ikkisini kelimtiruvchi mazdaviylik dini shakllangan. "Avesto" bu dinning oxirgi va asosiy qismini bayon etgan. Juda ko'pchilik tadqiqotchilarninig fikricha, Zaratushtra afsonaviy bo'lmasadan, tarixiy shaxs hisoblanadi. U yunon-rim manbalarida Zoroastr, qadimgi fors tilida Zardusht, o'rta fors tilida Zaratushtra nomi bilan eslatiladi. Manbalarning guvohlik berishicha, u Spitama avlodidan bo'lib, otasini Porushasp, onasini Dugdova deb atashgan. Uning nomi "oltin tuchli", "oltin tuya yetaklagan odam" ma'nosini beradi. Zaratushtraning otasi kohinlar tabaqasiga mansub bo'lib, u tug'ilgan mamlakat bizga noma'lum.

Bularning barchasi Zaratushtra hayoti tarixi, uning tug'ilgan joyi va sanasi, zardushtiylikning vatani hamda dastlabki yoyilgan hududlari haqida to'la ma'lumot bera olmaydi. Ammo, Avestoning maxsus boblari Zaratushtrani tarixiy shaxs sifatida yoritadi. Sharqshunoslar orasida "Avesto" ning yaratilishi haqida turli fikrlar mavjud: ularninig ayrimlari yodgorlik tarkibidagi eng ko'hna madhiyalar, miflar va mifologik

borazlarga suyanib, uning dastlabki qismlari eramizdan oldingi IX asrlarda yaratilgan, degan hulosaga kelishgan. Ular ba’zi matn va madhiyalaryakkahudolik e’tiqodi paydo bo’la boshlagan ilk paytlarda kohinlar tomonidan yaratilib, keyinchalik “Avesto”ni tuzganlar ulardan ham foydalangan, deb uqtirishadi. Bir guruh avestoshunoslar kitobninig yozila boshlashini bevosita Zardushtning Sablon tog’ida kechgan hayoti bilan bog’laydilar va bunda Hotlar asosan payg’ambar she’rlaridan tashkil topganiga suyanadilar.

Hархолда “Avesto”da ajdodlarimizning eng qadimiylari she’rlari, musiqa, badiiy tafakkur mevalari, diniy aqidalariyu ilmiy dunyoqarashlari mujassamlangani aniq “Avesto” Zardusht va mazdoparastlik dini ulamolari tomonidan yozilib, to’planib bo’lgach, maxsus kotiblar tomonidaning ho’kiz terisidan tayyorlangan qog’ozga oltin suvi bilan ko’chirilgan. Yuqorida ta’kidlanganidek, “Avesto” 21 nask (kitob) dan iborat bo’lgan. Bu haqda “Tarixi Balamiy”da ham aniq ma’lumot mavjud. Makedoniyalik Iskandar Eronni bosib olgach, “Avesto” ning “dijnabisht”-arxivd, otashkada, xazinalarida saqlanayotgan eng nodir nus’hasini tarjima qildirib olib, o’zini yoqtirib yuboradi. Gushtasp xazinasidagi “Avesto” nusxasining taqdiri hamon noma’lumligicha qolmoqda. Sosoniylar sulolasining dastlabki podshosi Ardascher Bobokan Xirbadan nomli donishmandga “Aveston” ni qayta tiklash vazifasini topshiradi. U bir qancha zardushtiy ulamolar bilan hamkorliada obidani asl holiga keltiradi. Keyingi tadqiqotlardan aniqlanishicha, Xirbadan yuborgan yetti mu’bad Seiston, Balx, Marv hamda Eron Vij (Xorazm)ni kezib chiqadilar. Ular Turonzaminda “avesto”ni yoddan biladigan baxshilarni qidirib topadilar. Natijada “Gohlar” hamda “Vendidod”ning eng mukammal nusg’alarini xorazmlik uchta mu’bad og’zidan yozib olishadi. Sarchashmalarining guvohlik berishicha, zardushtiylik uzil-kesil shakllangan davrlarda markaziy shaharlarda podsho yoki hokim farmonlari.

Markaziy hokimiyatning mahalliy boshqaruvchilarga, qo’shni davlatlarga yo’llagan maktublarining nus’halari har xil nask (kitob)lar saqlanadigan “dijnabisht” (arxivlar) mavjud bo’lgan. Samarqand dijnabishtida “Avesto”ning nodir nus’halari dan biri saqlangan. Shundan so’ng Shopur ikki davrida mu’badlarning mu’badi Ozorpod Mehrospondon “Avesto”ning parokanda qismlarini to’playdi., unga ko’p nom, tushunchalarni keng sharhlovchi “Zend Avesto” kitobini yaratadi. Arablar istilosini davrida o’z e’tiqodlarida sobit qolgan yuzlab eroniylar xonadoni Janubiy Hindistonga hijrat qiladilar va hozirgi ajdodlar udumini asrab qolishgan.

Ularning Bombeyda zardushtiylik udumini o’rganadigan Koma ilmiy markazi ham mavjud. Ana shu ma’naviyat o’chog’ida Ardascher davrida ko’chirilgan “avesto” nusxalari saqlanadi. Shuningdek, kitobning bir qo’lyozmasi Rossiya Federasiyasining Sankt-Peterburgdagi Saltikov Shchedrin nomidagi Davlat kutubxonasining Sharq qo’lyozmalari bo’limida ham mavjud. Bundan tashqari “Avesto” XIX asrning o’rtalarida fransuz, ingliz va nemis, rus tillarida ilmiy izohlar bilan bir necha marotaba nashr etilgan: endilikda biz “Avesto”ning ikki muallif tomonidan bajarilgan



nomukammal tarjimasiga ham egamiz. Zoroastrizm – otashparastlik, miloddan avvalgi VI – milodning VI asri dinining muqaddas kitobi bo’lib, miloddin avvalgi VI- milodning VI asrlarida yozilgan, Eron hamda O’rta Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati, “tiqodi, tili, adabiyoti va qisman tarixini o’rganishda asosiy manba hisoblanadi. Asarning yozilgan joyi haqida turlicha fikrlar mavjud. Bir guruh olimlar fransuz J.Darmsteter, ozarbayjon olimi I.Aliyev “Avesto” Midiya - hozirgi Eronning shimoliy-g’arbiy qismi va Ozarbayjonda yozilgan desalar, ko’pchilik V.V.Struve, S.P.Tolstov, F.Altxaym va boshqalar Amudaryo bo’yida joylashgan viloyatlarda, Balx va Xorazm oralig’ida yaratilgan, deb hisoblaydilar. Oxirgi fikr so’nggi vaqtarda Eron olimlari, masalan Ibrohim Pur Dovud tarafidan ham e’tirof etildi.

«Avesto» asarida inson shaxsining kamolotga erishishiga oid fikrlar ifoda etilgandir. Mazkur asar g’oyalari orqali qadimgi davrlarda mamlakatimiz hududida yashagan xalqlarning tabiiy, ilmiy, ma'rifiy hamda ijtimoiy qarashlari borasida muhim malumotlarga ega bo’lamiz. « Avesto » diniy xarakterga ega bo’lish bilan birga, o’zida falsafiy, siyosiy, filologik, va tarbiyaviy masalalarni ham qamrab olgan. Zardushtiylik dinining g’oyalari xususida so’z borganda, ularning to’g’rilik bilan yashash va axloqiy unsurlarga asoslanganligini alohida ta’kidlab o’tish lozim. Ushbu afsonada gunoh va uning jazosi, poklikning mohiyati ta’riflanib olov, suv, er, chorva, daraxt hamda o’simliklar ulug’lanadi, kohin, harbiy, dehqon va chorvadorlar sharaflanadi.

Hayvonlarga zulm o’tkazish eng katta gunoh sifatida qoralanadi. Mazkur bo’limda shaxsiy gigienaga amal qilishga oid qoidalar–tirnoq va sochni parvarishlash masalalari yuzasidan fikr bildiriladi. Bildirilayotgan fikrlardan anglashiniladiki, zardushtiylik dinining g’oyalari ko’ra, shaxsning axloqiy xislatlarga ega bo’lishi Adolat o’lkasini qaror toptirishda tayanch omil bo’lib xizmat qiladi. Zardushtning asosiy yo’riqlaridan biri ham Axura Mazdaning ko’makchisi sanalgan inson sa-hovatli bo’lishi kerak, degan aqidadir. Garchi, zardushtiylikda diniy rasmrusumlarga rioya etish, Zardusht tomonidan ilgari surilgan barcha axloqiy yo’l-yo’riqlarni bajarish har bir kishining muqaddas burchi ekanligi e’tirof etilishi bilan birga, dunyoviy ishlar va ularning mohiyati ham ochib beriladi. «Yaxshi fikr» iborasining mazmuni o’zida ilohiy qonun ruhidagi g’oyalarga ega bo’lish, yaqin kishisiga nisbatan mehribonlik ko’rsatish, muhtojlarga ko’maklashish, yovuzlikka qarshi kurashga doimo tayyor turish, kishilarning baxt-saodati yo’lida harakat qilish, ahillik, qabiladoshlar bilan birga do’stlik va totuvlikda yashashga intilish ruhidagi niyat va fikrlar musaffoligini aks ettiradi. Inson fikran ham boshqalarga hasad qilmasligi lozim. Yaxshi niyatli kishi darg’azab bo’lmaydi, jaholatlarga berilmaydi. Zero, bunday ruhiy holatda inson yaxshilik haqida o’ylamaydi, burch vaadolat haqida unutadi va nojo’ya harakatlar qiladi. «Avesto»dagi uchlikning haqiqiy manbalariga yondashiladigan bo’lsa, ular qadimgi zamon kishilarining axloqiy tasawurlariga batamom muvofiq bo’lib tushadi.

Fikr, so’z va ishning birligi ibridoiy insonning ham ajralmas xislati edi. Uning ong, axloq va boshqalar xususidagi tasawurlari o’zi mansub bo’lgan jamoa bilan uzviy

bog'langan, Jamoaning fikri uning ham fikri, jamoaning so'zlari uning ham so'zlari, jamoaning ishlari uning ham ishlari bo'lgan. Ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarning uyg'unligi-urug'chilik jamiyatining muhim belgisidir. Jamoaning har qanday topshirig'ini bajarish uning a'zolari uchun mu-qaddas qonun edi.

Xulosa qilib aytganda, «Avesto» asarida insonning barkamol bo'lib etishishida uning so'zi, fikri hamda ishi ezgu bo'lishi va e兹gulikning tantanasi uchun xizmat qilishiga katta e'tibor beriladi. Ushbu axloqiy uchlik g'oyasi eng qadimgi davrlardan boshlab kishilik jamiyati taraqqiyotining keyingi bosqichlarida yaratilgan barcha ma'rifiy asarlar mazmunining shakllanishiga asos bo'lgan. Zero, unda insonning inson sifatida ma'naviy va moddiy jihatdan kamol topishi uchun zarur bo'lgan muayyan talablar o'z ifodasini topib, hayot kodeksi sifatida nafaqat Sharq, balki G'arb xalqlarining ham muhim ma'naviy merosi bo'lib qoldi. Asarda ifoda etilayotgan masalalarning ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olganligi Zardusht g'oyalaring nazariy va amaliy ahamiyatini oshirib, uning qimmati bugungi kunda ham yuqori bolishiga olib kelgan.

Onglilik va faollik tamoyili ta`lim jarayonida o'qquvchilarining passiv bo'lib materialni tushunmay mexanik ravishda quruq yodlashi emas, balki bilim va malakalarini faol ravishda anglab chuqur va asosli bilim olishi zarur.

Ta`limda ko'rsatmalilikdan foydalanish qadimiyyidir. Komenskiyning fikricha, ko'rsatmalilik tamoyili ko'rsatib o'tish usuli emas, balki barcha sezgi organlari narsalar va hodisalarini eng ravshan, asosli mustahkam puxta o'zlashtirib olishga jalb qilish vositasidir.

Ko'rsatmalilik tamoyilini joriy etishda quyidagilarga amal qilish zarur:

- 1) mavjud narsalarning o'zini ko'rsatish yoki tabiiy holda kuzatishlar o'tkazish;
- 2) narsalarning modelini yoki nusxasini ko'rsatish;
- 3) narsa va hodisalar tasvirlangan suratlarni ko'rsatish.

Ilm sirlarini bilib olish uchun yoshlardan quyidagilar talab qilinadi.

1. Sof aqlga ega bo'lish;
2. O'rganish zarur bo'lgan narsani ko'rish;
3. Diqqatni to'play olish;
4. Kuzatish lozim bo'lgan narsalarni ma'lum tartibda ketma-ket ko'rsatish.

Sezgilar vositasida mukammal idrok qilingan narsalar, hodisalar xotirada uzoq vaqt mustahkamlanadi. Komenskiy shunday yozadi: "Agar kishi biror marta qand yegan bo'lsa, tuyani bir ko'rgan bo'lsa, bulbul xonishini bir marta eshitgan bo'lsa, bularning hammasi xotirada mustahkam qoladi va esdan chiqib ketmaydi". Ko'z bilan ko'rilgan narsani isbotlashning hojati yo'q. Shuning uchun Komenskiy maktablar va muallimlar darslarda ko'rsatma qurollarni ko'proq ishlatishi zarur deb bildi.

Izchillik va tizimlilikni ajratib bo'lmaydi. O'quv materiallarini matematikaga xilof ish qilmasdan to'g'ri tekshirib chiqish o'qitishni nimadan boshlab va unda ketma-ketlikka rioya qilish, yangi material bilan oldin o'tilganlarni bir-biriga bog'lash.

Uning fikricha, ta`lim boshidan oxirigacha izchil davom etishi ta`limning poydevorini mustahkam qurilishini ta`minlaydi. Hozir o'rganilgan bilimlar oldingisiga asoslanilsa, keyingisiga yo'l ochiladi.

Ta`limda umumiydan-xususiyga, ma`lumdan-noma`lumga, uzoqdan-yaqinga kabi qoidalarga amal qilinadi. Uning fikricha, mashq qilish va takrorlash tamoyilii o'quvchilarning ongiga asoslanib bilimlarini puxta egallahsga xizmat qilishi kerak.

Mashqlar natijasida bola so'zlarni quruq yodlay olmasligi, narsa va hodisalarini tushunib olishi bilimlarni o'zlashtirishi va amalda qo'llashi lozim. Bola o'qib to'g'ri tushunib olgan bilimlarning barchasi uning xotirasiga mustahkam saqlanib qoladi. O'rgatmoqchi bo'lgan narsani bolaga amalda bajartirish kerak. Mashq qilish va takrorlash bilimlarning ongli va puxta o'zlashtirishida muhim rol o'ynaydi.

Dars o'quv mashg'ulotini tashkil etishning asosiy shakli va quyidagilarni taqozo qiladi.

- a) bilim darajasi bir xil bo'lgan o'quvchilarning o'zgarmas tarkibi;
- b) o'quv mashg'ulotlarini, darslarni qat`iy jadval asosida tashkil etish;
- v) muallim bir vaqtning o'zida sinfdagi barcha o'quvchilarga bir fan o'rgatishi;
- g) butun o'quv mashg'uloti davomida o'qituvchilarning rahbarlik roli.

Komenskiyning fikricha, bolalarni mакtabga har yili bir marta qabul qilish lozim. O'qishga qabul qilinganlar sinflarga taqsimlanib chiqilishi kerak. Maktabda sinflar soni qancha bo'lsa, sinf xonalari ham shuncha bo'lishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilari har kuni to'rt soat, gimnaziya o'quvchilari olti soat o'qishi kerak. Har bir darsda ma`lum vazifani bajarish kerak.

Muallim biror narsani tushuntirayotganda hamma bolalar diqqat bilan tenglasinlar. Komenskiy butun dunyoda pedagogik fikrlar va maktablar taraqqiyotida juda katta ta`sir ko'rsatdi. Shuning uchun ham butun insoniyat Komenskiyni qadrlaydi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta`lim to'g'risida»gi Qonuni. –T.: O'zbekiston 1997
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: O'zbekiston, 2008.
3. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. Toshkent: O'qituvchi, 1992. 160 b.
4. Bekmirzayev N. Notiqlik san'ati asoslari. T.: Yangi asr. – 2008. -200 b.
5. Kaykovus. Qobusnoma. Toshkent: Istiqlol. – 1994. 173 bet